УДК 821.512.161:81347

O‘ZBEK-TURK MA’RIFATCHILIK ADABIYOTINING ILDIZLARI

H.H. Boltaboyeva

Maqolada turkiy xalqlar mumtoz va yangi adabiyotiga asos bo‘lgan ma’rifatchilik g‘oyalarining ildizlari, shakllanishi va keyingi davr turkiy adabiyotga ta’siri xususida so‘z yuritilgan. XX asr boshlarida yangi turk va o‘zbek jadid adabiyotining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar sifatida ma’rifatchilik belgilanadi. Yangi turk adabiyotining asoschilaridan biri Mehmed Akif Erso‘y va o‘zbek jadid adibi Fitrat ijodidagi ma’rifatchilik g‘oyalarining genezisi aniqlanib, ularga ta’sir etgan omillar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *turkiy adabiyot, ma’rifatchilik g‘oyalari, jadid adabiyoti, genezis, omillar.*

В статье рассматривается становление просветительских идей, которые легли в основу классической и новой литературы тюркских народов, их влияние на общетюркскую литературу более позднего периода. Просвещение определяется как фактор, повлиявший на формирование новой турецкой и узбекской джадидской литератур начала XX века. Определяется генезис идей просвещения в творчестве одного из основоположников новой турецкой литературы Мехмеда Акифа Эрсоя и узбекского писателя-джадида Фитрата, анализируются факторы, повлиявщие на них.

Ключевые слова: *тюркская литература, идеи просвещения, джадидская литература, генезис, факторы.*

Kirish

Jahon adabiyotshunosligida ma’rifatchilik adabiyoti XVII–XVIII asrlar davomida keng quloch yozishi natijasida uning turk va o‘zbek adabiyotlariga ta’siri XX asr boshidan aniq namoyon bo‘la boshladi. Turkiyada “Sarvati funun”, “Yosh turklar” deb nomlangan adabiy harakatlar doirasida ma’rifatparvarlik adabiyoti Nomiq Kamol, Ahmad Midhad, Mehmet Akif, Yaqub Qadriy, Ziyo Ko‘kalp, Mehmet Amin Yurdaqul, Umar Sayfiddin kabi ijodkorlar faoliyatida yuzaga chiqdi. O‘zbek jadid adabiyotining ayrim vakillarli Fitrat, Xolid Said kabilar Istanbul dorilfununida o‘qishi davomida bu harakatlarda faol ishtirok etdilar. Behbudiy Rusiya milliyatparvarlarining yetakchisi Ismoilbey G‘aspirali bilan Turkiyada uchrashib, uning Istanbul ilmiy doiralarida qilgan ma’ruzalaridan bahramand bo‘ldi. Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon kabi ulug‘ adiblar ham XX asr boshlaridagi turk adabiyotiga yuksak hurmat bilan qarab, Turkiyada rivoj topgan Yevropa tipidagi adabiyotni o‘rganib, uning ruhida asarlar bitdilar.

Umumturk adabiyotida ma’rifatchilik masalasi qadimdan shakllangan bo‘lib, Yusuf Xos Hojib, Xoja Ahmad Yassaviy, Adib Ahmad Yugnakiy, Nosuriddin Rabg‘uziy kabi ulug‘ ijodkorlar bu yo‘nalishdagi adabiyotning tamal toshini qo‘ygan edilar va ular bevosita Islom renesansi deb atalgan Ilk uyg‘onishning milliy ma’naviyatdagi aksi o‘laroq yuzaga chiqqan edilar. Temuriylar davrining milliy madaniyatimizda Ikkinchi renesans deb atalishi bu davrning ulug‘ adiblari Lutfiy, Husayniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyotining dunyo tan olishi natijasidir.

Ayni jarayonda ushbu o‘zaro aloqadorlikning bosh bo‘g‘inlari sanalgan Mehmet Akif Erso‘y (1873–1936) va Abdurauf Fitrat (1886–1838) asarlaridagi ma’rifatparvarlik g‘oyalari va ularning badiiy asarlaridagi ifodasini qiyosiy nuqtayi nazardan o‘rganishga zarurat tug‘iladi.

Materiallar va usullar

XX asr boshlari turk va o‘zbek adabiy aloqalari kontekstida Mehmed Akif Erso‘yning she’rlari, xususan, “Istiqlol marshi”, “Safahot” asari hamda Fitratning “Sayha” va “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamlaridagi she’riy asarlari, “Munozara”, “Hind sayyohi”, “Rahbari najot” asarlari qiyosiy tahlil uchun material sifatida belgilandi.

Maqolada adabiyotshunoslikdagi qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va badiiy asar poetikasi tahlili usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Ma’rifatchilik adabiyoti G‘arbiy Yevropada XVII-XVIII asrlarda keng quloch yozgan bo‘lishiga qaramasdan, uning ildizlari Sharqda, to‘g‘rirog‘i, umumturk adabiyotida vujudga kelgan edi. “Ma’rifat” (مَعْرِفَت) tushunchasi asosida arabcha “a’rafa” (عَرِفَ) so‘zi yotadi, uning “bilim”, “ilm olish” kabi ma’nolarni anglatishi ma’lum. Bu o‘zak so‘zdan “maorif”, “ma’rifat”, “irfon” va boshqa tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlar ham yasalganki, ularning hamma ma’nolari tamoman ma’rifat tushunchasi bilan bog‘liqdir [1. B. 567]. Turk mumtoz adabiyotida ham ushbu atamaning ayni mana shu jihatlariga e’tibor qaratilgani, asrlar davomida adabiyot inson bilimini oshirishga yo‘nalgani, ta’lim-tarbiya quroli bo‘lgani uchun ham u “ta’limiy adabiyot” deb yuritilgan.

Ma’lumki, turkiy xalqlarning umumiy boyligi bo‘lgan adabiy sarchashmalari Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutudg‘u bilig”, Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”, Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari sanaladi. Turkiy tilda yaratilgan bu adabiyot namunalari nafaqat til nuqtayi nazaridan ilk manbalar, balki ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tashigan adabiy manbalar sifatida ham jahon adabiyotshunosligida alohida qadrlanadi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkcha so‘zlarning arab tilidagi lug‘ati bo‘lgani uchun ham unda “ma’rifat” tushunchasini ifodalovchi turkcha “bilig” so‘zi arab tilida izohlanar ekan, devon muallifi ayni mana shu munosabat bilan “ma’rifat” kalimasini tilga oladi va quyidagicha izoh beradi: “بِلِكْ bilik – ilm, bilim. بِلِكْ اُگْرَنْ bilik ögrän – ilm o‘rgan; بِلِكْلِكْ كِشِىَ biliklik kishi – aqlli, olim, bilimli odam” [2. B. 259] .

“Devon”ni tadqiq etgan turk va o‘zbek olimlari Basim Atalay, Najib Osimbek, Ismoil Hikmat, Said Bey, Mehmet Fuod Ko‘prulu, Zaki Validi To‘g‘on, Farit Birtek, M.Sh.Ulkutashir, A.Jafer o‘g‘lu, Sechqin va Sarab Tug‘ba Yurtasar kabi turk olimlari hamda Fitrat, S.Mutallibov, Q.Karimov, A.Rustamov, H.Hasanov, A.Qayumov, G‘.Abdurahmonov, E.Umarov, Q.Sodiqov, A.Abdurahmonov, S.Rustamiy va boshqa shu kabi o‘zbek olimlarining tadqiqotlarida ham bu so‘z ma’rifat tushunchasining dastlabki ilmiy izohi sifatida qabul qilingan. Shundan kelib chiqib, barcha turkcha lug‘atlarda uni “bilgi” (bilim) tarzida izohlaydilar [3. B. 1627].

Barcha turkiy xalqlar tomonidan ilk turkiy doston o‘laroq qabul qilingan “Qutadg‘u bilig” asarida ma’rifat tushunchasi izohlanibgina qolmay, “Insonning qadri bilim bilan belgilanadi” deyish bilan *Bilig berdi yangluq bezudi bu kun / Ukush berdi o‘tru yazildi tugun* (Bilim berdi, shu tufayli inson bu kun ulug‘liqqa erishdi, O‘quv berdi, so‘ng tugunlar yechildi) tarzida hikmat keltiriladi [4. B. 6-8]. Doston qahramonlaridan biri O‘gdulmish – vazirning o‘g‘li bo‘lishi bilan birga aql va zako, demak, ma’rifat belgisi sifatida ham talqin qilingan.

“Ma’rifatli” so‘ziga urg‘u berarkan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bunday kishini “ma’rifatga erishgan” deb izohlaydi va misol beradi. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da: “Ma’rifat – kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma’rifat ilm-u urfon ma’nosida ham ishlatiladi. Ma’rifat tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq. Ma’rifat ma’naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo‘lishga yordam beradi” deb talqin qilishi bilan e’tiborni ma’rifatli shaxs tushunchasiga tortadi.

Yuqorida izohli lug‘atda ma’rifat so‘zining ikkinchi ma’nosi o‘laroq: “Tasavvufda har bir sufiy ruhiy kamolotga erishish yo‘lida bo‘sib o‘tadigan bosqich (maqom)lardan biri. Uning asosida yaratilgan ma’rifatli so‘zi esa, ma’rifatga erishgan ma’nosini anglatadi” kabi izohni unutmagan holda manbalarga murojaat qilganda, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida “ma’rifat” insoniy sifat o‘laroq ulug‘lanish bilan birga uning yuqoridagi tasavvufning irfoniy yuqori bosqichi ekaniga urg‘u beriladi va uning nazariy asosi bo‘lgan hamda “Devoni hikmat”ning muqaddimasi” (A.Go‘zal) sanalgan “Faqrnoma”da shariat (1), tariqat (2), haqiqat (3) va ma’rifat (4) kabilar silsilasida insonning kamolotga erishish maqomlaridan yuksagi sifatida ta’riflangan: “Ey tolib, agar Haqni talab qilib, tobay desang, andoq pirga qo‘l bergilkim, shariatda orifi billoh bo‘lsa, tariqatda voqifi asror bo‘lsa, haqiqatda komil-u mukammal bo‘lsa, ma’rifatda daryoyi ummon bo‘lsa, saodat bo‘lg‘ay”. Turk olimi professor Abdurahmon Go‘zal Xoja Ahmad Yassaviy tilga olgan istilohlar haqida so‘z yuritib, Ahmad Yassaviy turkiy dunyoga bergan ma’rifat xususida to‘xtalgan, “ma’rifat ayni paytda tashqi dunyo muhabbatiga da’vat qilguvchi his va tushunchalardan yiroq-

lashib ketgan odamning oliy sifatidir” degan xulosaga kelgan [5. B. 55-56].

Tasavvuf adabiyotida ma’rifatning alohida maqom sifatida qaralishi, unga erishish so‘fiylik yo‘lining taraqqiyot bosqichlaridan biri bo‘lgani ham ma’lum. Onado‘li adabiyotida Jaloliddin Rumiyning “Ma’naviy masnaviy”sida ma’rifat yuksak bosqichlarda tasvirlangan. Onado‘li turklari orasida ilk turkcha asarlar bitgan Sulton Valadning adabiy merosida “Maorif” (ayrim nashrlarda “Ma’rifatnoma”) asari muhim o‘rin tutadi. Chunki Onado‘li tasavvuf adabiyotida bevosita “Ma’rifat” g‘oyasini sarlavhaga chiqargan va shaxs ma’rifatini ilohiy ma’rifat sari yo‘naltirilganlardan biri turkzabon Sulton Valad hisoblanadi. Uning asarlari Turkiston zamini bilan jiddiy bog‘-langanki, mavlaviy tariqati izdoshlari orasida adib asarlari Mavlono Jaloliddin Rumiydan so‘ng eng ko‘p tarqalgan asarlardan hisoblanadi.

Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu ul-haqoyiq” asari esa til jihatdan “Qutudg‘u bilig” asariga yaqin tursa-da, ma’rifat talqinida shunday izoh beradi: *Biliklik biliksiz qachan teng bo‘lur / Biliklik tishi er jahil er tishi* (Ilmli kishi bilan ilmsiz odam qachon teng bo‘ladi, bilimlik xotin kishi – er kishi, bilimsiz erkak esa xotindir)” [6. B. 234]. Ushbu talqin hadislarga asoslangani uchun uning zamirida Qur’oni karimdagi “Bilganlar bilmaganlar bilan barobarmi?” oyati karimasi yotganini kuzatish mumkin.

XIV asrga kelib ma’rifiy adabiyot Nosuruddin Rabg‘uziyning mo‘g‘ul beklariga islom tarixidan saboq berish uchun yozilgan “Qisasi Rabg‘uziy” asari ma’rifatparvarlik adabiyotining yorqin namunasi sifatida yuzaga chiqdi [7. B. 178]. Keyingi davr adabiyotining vazifalari kengayib, ma’rifiy-ta’limiy adabiyotdan yuksak badiiyat namunalari yaratilgan mumtoz adabiyot sari qadam tashlandi.

Turkiy xalqlar adabiyotining ilk sarchashmalari bo‘lgan bu adabiyot namunalari qardosh turkiy xalqlar adabiyotida ham aks sado berdi. Ayniqsa, Xoja Ahmad Yassaviyning turkiy tilda yaratilgan asarlari Yunus Emroning xalqona ruhdagi asarlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari, xususan, Hakim Sulaymon ota va uning Onado‘lidagi izdoshlarining ta’siri turk olimlari tomonidan e’tirof etilgan bo‘lib, “Turk millatining buyuk bir talihina va ayni zamonda, asosan, millatimizda asrlardan beri mavjud bo‘lgan milliy, ma’naviy va insoniy javharlarning tazohuruni vasila olmishdir... va bu javharning o‘lmas obidasi bo‘lgan Xoja Ahmad Yassaviydan olingandir”. Yassaviylik tariqati ta’siri mavlaviylik, bektoshiylik, bayramiylik kabi tasavvuf tariqatlarida va ularning vakillari yaratgan adabiyot namunalarida ko‘rinadi [8. B. 515]. Professor F.Ko‘prulu “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar” asarida Yassaviy va Yunus Emro asarlarini chuqur qiyosiy tadqiq etgan bo‘lsa, professor Kamol Eraslon Xoja Ahmad Yassaviyga nisbat berilgan “Faqrnoma” asaridagi “faqr” (tushuncha), “faqir” (shaxs) istilohlarini ma’rifiy adabiyotning belgilari sifatida qaraydi va tasavvufning barcha tariqatlari uchun umumiy bo‘lgan ma’rifat maqomining tasavvufdagi o‘rni va uning Onado‘lidagi tariqatlariga ta’sirini ko‘rsatadi.

Temuriylar davriga kelib o‘zbek-turk adabiy aloqalari yaxshilandi, temuriy hukmdorlar Husayn Boyqaro sulton Boyazid II bilan, Zahiriddin Muhammad Bobur Qonuniy Sulton Sulaymon bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi natijasida Lutfiy, Navoiy, Husayniy, Bobur asarlari Onado‘liga yetib bordi, Ahmad Posho, Muhibbiy (Sulton Sulaymon) asarlari Markaziy Osiyoga yetib keldi. Bunday adabiy hamkorlikning davomida ma’rifat masalalari har ikki adabiyotni bog‘lab turuvchi ko‘prikka aylandi.

Professor F.Ko‘prulu o‘z asarida Xoja Ahmad Yassaviy ijodining butun Turk olamiga ta’siri doirasini: 1) Qipchoq, ya’ni bugungi shimol turklari doirasi; 2) turkman doirasi; 3) ozariy doirasi va 4) G‘arb turklari, ya’ni Onado‘li va Rumeli doirasi deb ko‘rsatadi. So‘nggi doirani tahlil qilarkan, Chingiz istilosi tufayli Turkiyaning Ko‘niyo va boshqa shaharlariga ko‘chib kelgan ma’rifatli kishilar, xususan, Ahmad Yassaviyning ta’qibchi (izdosh)lari turk ma’rifiy adabiyotining shakllanishida xizmat qilganini qayd etadi va bu jarayon XVI asrga qadar davom etganini ko‘rsatadi [9. B. 178-179]. Mazkur kitobning keyingi bo‘limlarida Mavlono Jaloliddin Rumiy, Sulton Valad va nihoyat, Yunus Emroga doir qarashlarini anglatgan. Markaziy Osiyodan borgan “tasavvuf karvonlari” Kichik Osiyoda keng tarqalishi natijasida “XIII asrdan XVI asr oxiriga qadar Onado‘li diniy hayoti juda muhim soha bo‘ldi. Yunus Emrodan boshlangan bir qancha buyuk mutasavvif shoirlar yetishgan bu muhitda bobaylik, abdollik, bektoshiylik, hurufiylik, qalandariylik, haydariylik nomi ostida bir qancha tariqatlar shakllangan va yoyilgan”.

Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emro ijodidagi mushtaraklik qariyb 800 yildan beri mutaxassislarning e’tiborida bo‘lib kelgan. Ayni jihatdan Fitratning “Ahmad Yassaviy”, “Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar” kabi maqolalari [10. B. 37] bu o‘zaro ta’sir jarayoni XX asr boshlaridagi qarashlar uchun ham e’tiborda bo‘lganini yuqorida Fuod

Ko‘pruluning asarlari doirasida ham kuzatdik. Fitrat “O‘zbek adabiyoti namunalari (1-jild)” majmuasida Ahmad Yassaviy hikmatlaridan namuna keltiradi, ma’rifat maqomi Yassaviy va uning izdoshlari ijodida ham, “Faqrnoma” kabi nazariy manbalarda ham tasavvuf ta’limotining asos ustunlaridan biri bo‘lgani kuzatiladi. Adabiyotshunos Sh.Rizayev “Ma’rifatparvarlikdan ma’rifatchilikkacha” deb nomlangan maqolasida yozishicha, “Ma’rifat orqali insonning har jihatdan komil bo‘lib yetishishini ta’minlash masalasi “Avesto”, O‘rxun-Enasoy bitiklaridan “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” va Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”igacha uzoq takomil yo‘lini bosib o‘tgan. Bunda, ta’bir joiz bo‘lsa, ma’rifatparvarlik g‘oyasi sof ma’naviy-ruhiy jarayon sifatida islom dini aqidalari bilan birgalashib, insonni nafs qulligidan chiqarib, ma’naviy ruhiy yuksaklikka undadi” [11. B. 74] .

Turk adabiyoti tarixida “Yangi adabiyot” 1839–2000-yillar deya e’tirof etiladi. Bu umumiy nom ostida Tanzimot davri, “Sarvati funun” adabiyoti, “Milliy adabiyot”, “Jumhuriyat davri” va “Modern adabiyot” kabi adabiy davrlar birlashtiriladi. Demak, ildizi XI asr adabiy manbalariga borib ulanadigan ma’rifatchilik adabiyoti, xoh Turkiya turk adabiyotida bo‘lsin, xoh Markaziy Osiyodagi turkiy adabiyotda bo‘lsin, bir buloqdan, ya’ni islomiy manbalardan oziqlanishi turk va o‘zbek olimlari tomonidan asoslangan. Jahon adabiyotshunosligida “Ilk turk islom adabiyoti” deb nomlanadigan adabiy sarchashma milliy adabiyotlar taraqqiyoti sari XX asr boshlaridagi Mehmet Akif Erso‘y va Abdurauf Fitrat yashab ijod qilgan davrlarga kelib ulanadi. “Sarvati funun” va “Milliy adabiyot” atamalari anglatgan adabiy davrda ma’rifatchilik yetakchi xususiyat kasb etganini Shinosiy, Nomiq Kamol, Ziyo Posho, Ahmad Midhad, Xolid Ziyo, Mehmet Rauf, Mehmet Akif, Yaqub Qadriy, Ziyo Ko‘kalp, Mehmet Amin Yurdaqul, Umar Sayfiddin, Ahmet Hikmat [12. B. 183] ijodlarini tadqiq etgan olimlarning qarashlari mavjud. Chunki ma’rifat masalasi umumturk adabiyotida biror davr yoki hudud doirasida cheklanib qolmagan, balki milliy adabiyotlarning o‘zak masalalaridan biri bo‘lib kelgan.

Xulosa

XX asr boshlari ma’rifatchilik adabiyotining ildizlari islomiy adabiyotga, turk tilidagi ma’rifiy adabiyotga borib taqalishi barobarida uning nazariy jihatdan shakllanishi va dunyo miqyosida e’tibor topishida G‘arb ma’rifatchiligining ham muayyan o‘rni bor.

Turk olimlarining qayd etishicha, Tanzimot farmoni “Nizomi jadid” (“Yangi Nizom”) nomi bilan tarixga kirgan bo‘lib, unda yozilishicha, “Usmonli hukumati bu farmon bilan ichki ishlarda hozirgi hayotga doir fikrlar keltirib, “Majalla” va “Madaniy qonun”, “madrasa” va “yangi maktab”ni barpo etishga chaqirdi“ [13. B. 29]. Mehmet Akifning “Safahot” asarida tilga olingan “maktab va madrasa islohoti” mana shu qonunda ko‘rsatilgan moddalarning XX asr boshlari hayotidagi aksidir.

Adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғат / А.Мадвалиев таҳрири остида. Беш жилдли. 2-жилд. А-Д. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – 561 б.

2. *Кошғарий М.* Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк). I жилд. Тўлдирилган ва ислоҳ қилинган иккинчи нашри. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2016. – 456 б.

3. *Şükür Haluk Akalın*. ve başka. Türkçe Sözlük. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2019. – 2764 s.

4. *Юсуф Хос Ҳожиб*. Қутадғу билиг / Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – 1234 б.

5. *Güzel A.* Bakırgan kıtabı üzerıne bır inceleme. – Ankara: Kültür Eserleri, 2007. – 220 s.

6. *Маҳмудов Қ.* Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибат ул-ҳақойиқ” асари ҳақида. – Тошкент: Фан, 1972. – 246 б.

7. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-жилд. Энг қадимги даврлардан XV асрнинг II ярмигача. – Тошкент: Фан, 1978. – 448 б.

8. *Zhigulskaya D.V*. Hoca Ahmed Yesevi’nin Anadolu Bektaşiliği ve Aleviliği Üzerindeki Tesiri / Kul Hoca Ahmed Yesevi Makaleleri Kitabı. – Ankara, 2018. – S. 515-517.

9. *Köprülü M.F*. Türk Edebiyat’ında İlk Mutasavvıflar. – Ankara: Oteken, Türk Tarih Kurumu, 1976. – 620 s.

10. *Фитрат А*. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 286 б.

11. Ризаев Ш. Маърифатпарварликдан маърифатчиликкача // Тафаккур, 1995. – № 1. – Б. 74-76.

12. Korkmaz R. Yeni Türk Edebiyatina Giriş / Yeni Turk Edebiyati. 1839– 2000. – Ankara: Grafiker Yayincilik, 2009. – 534 s.

13. *Argunşah H*. Milli Edebiyat / Yeni Turk Edebiyati. 1839–2000. – Ankara: Grafiker Yayincilik, 2009. – 526s.

ROOTS OF UZBEK-TURKISH ENLIGHTENMENT LITERATURE

H.H. Boltaboeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2022. 5(65). 83-88.

[1]Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, 100047, str. Shahrisabz, 20 (Uzbekistan). E-mail: info@tsouos.uz

Keywords: Turkish literature, Enlightenment ideas, modern literature, genesis, factors.

The aim. Comparative analysis of the ideas of Enlightenment and their artistic expression in the works of Mehmet Akif Erso'i and Abdurauf Fitrat in the context of the Turkish and Uzbek literary relations of the beginning of the 20th century.

Used materials and methods. Turkish and Uzbek literary relations in the beginning of the XXth century, Mehmed Akif Erso's poems, particulary, "Independence March", "Safahot" and Fitrat's poetic works in the collections "Sayha" and "Uzbek Young Poets", "Discussion", "Indian Tourist", " The works of Rahbari Najot" were selected as material for comparative analysis.

The article used comparative-historical, comparative-typological methods and poetics analysis of literary works.

Analysis and results. The concept of "enlightenment" (maʿrfat) (مَعْرِفَت) is based on the Arabic word "a'rafa" (ʿarfa) (عَرِفَ), which is known to mean "knowledge", "gaining knowledge". From this root word, words expressing "maarif", "enlightenment", "irfan" and other concepts were made, all of their meanings are completely related to the concept of enlightenment. Turkish classical literature also focuses on these aspects of this term, and because literature has been aimed at increasing human knowledge for centuries, it is also called "educational literature" because it is an educational tool.

The works of Mahmud Koshgari's "Devonu lug'otit turk", "Qutudgu bilig" by Yusuf Khos Hajib, "Devoni hikmat" by Khoja Ahmed Yassavi, and "Hibat ul-haqayq" by Adib Ahmad Yugnaki are among the literary treasures that are the common wealth of the Turkic peoples. These examples of literature created in the Turkish language are not only the first sources from the point of view of language, but also as literary sources that carry the ideas of enlightenment, they are especially valued in world literature.

By the 14th century Enlightenment literature, Nosuruddin Rabguzi's work "Qisasi Rabguzi" written to teach the Mongol begs about the history of Islam appeared as a bright example of enlightenment literature. In the next period, the tasks of literature expanded, and a step was taken from educational literature to classical literature, where high artistic examples were created.

By Timurids period, Uzbek-Turkish literary relations improved, as a result of the Timurid rulers Husayn Boygaro establishing diplomatic relations with Sultan Bayazid II, Zahiriddin Muhammad Babur with Sultan Suleiman the Magnificent, the works of Lutfi, Navoi, Husayni, Babur reached Anatolia, Ahmad Pasha, Muhibbi (Sultan Suleiman) works reached Central Asia. In the course of such literary cooperation, the issues of enlightenment became a bridge connecting both literatures.

Result. As the roots of the Enlightenment literature of the beginning of the XXth century go back to Islamic literature, to the Turkish language enlightenment literature, Western Enlightenment has a certain role in its theoretical formation and gaining attention on a global scale.

Conclusion. According to Turkish scholars, the Tanzimot decree went down in history under the name "Nizomi jadid" ("New Decree"), and it is written that "the Ottoman government with this decree introduced ideas related to current life in internal affairs, "Majalla" and "Cultural Law". "madrasa" and "new school" were built. The "school and madrasa reform" mentioned in Mehmet Akif's work "Safahot" is a reflection of the articles specified in this law in the life of the beginning of the XXth century.

References:

1. Madvaliyev, A. (ed.) (2006) *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. 2-volumes. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

2. Koshgari, M. (2016). *Turkiy so‘zlar devoni* (Devonu lug‘oti-t-turk). [Dictionary of Turkish words]. Vol.1. Tashkent: MUMTOZ SO‘Z.

3. Shukur Haluq Akalin (2019) Türkçe Sözlük [Turkish dictionary]. (Ankara: Türk Dil Kurumu.

4. Yusuf Khos Hajib (1971) *Kutadgu bilig* [Knowledge that brings happiness]. Prepared for publication by Q. Karimov. Tashkent: Fan.

5. Guzel, A. (2007). *Bakırgan kıtabı üzerıne bır inceleme* [A review about the book of Baqirgan]. Ankara: Kültür Eserleri.

6. Mahmudov, Q. (1972). A*hmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari haqida* [About Ahmad Yugnaki's work "Hibat ul-haqayq"]. Tashkent: Fan.

7. *O'zbek adabiyoti tarixi* (Eng qadimgi davrlardan XV asrning II yarmigacha) (1978) [History of Uzbek literature (From the earliest times to the second half of the XV century)]. Vol.1. Tashkent: Fan.

8. Zhigulskaya, D.V. (2018). Hoca Ahmed Yesevi'nin Anadolu Bektaşiliği ve Aleviliği Üzerindeki Tesiri / Kul Hoca Ahmed Yesevi Makaleleri Kitabı [Hoja Ahmed Yasavi's influence on Bektashiism and Alawism in Onadoli / Qul Hoja Ahmed Yasavi]. A collection of articles. Ankara. Pp. 515-517.

9. Koprulu, M.F. (1976). *Türk Edebiyat'ında İlk Mutasavvıflar* [The first Sufis in Turkish literature]. Ankara: Oteken, Türk Tarih Kurumu.

10. Fitrat, A (2000). Tanlangan asarlar [Selected works]. Vol.2. Tashkent: Ma'naviyat.

11. Rizaev, Sh. (1995). Ma'rifatparvarlikdan ma'rifatchilikkacha [From Enlightenment to Enlightenment]. *Tafakkur*. No 1. Pp. 74-76.

12. Korkmaz, R (2009). *Yeni Türk Edebiyatina Giriş* [Introduction to New Turkish Literature]. Ankara: Grafiker Yayincilik.

13. Argunşah, H. (2009). *Milli Edebiyat / Yeni Turk Edebiyati*. *1839-2000* [National literature / New Turkish literatur. 1839-2000]. Ankara: Grafiker Yayincilik.

Muallif haqida ma'lumot:

BOLTABOEVA Hulkaroy Hamidulla qizi. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Turk filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi. E-mail: hulkaroyboltaboyeva@gmail.com